

BADIIY ADABIYOTDA OCHIQ YAKUN MASALASI

Olimova Rushana Ilg'orjon qizi,

Samarqand davlat pedagogika instituti

tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Buriyeva Firuza Normurotovna

o'zbek tili va adabiyoti kafedراس dotsenti v.v.b.,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotdagi modernizm oqimining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ochiq yakun, ramziylik va psixologizm kabi jihatlar Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz", Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman", Andre Moruaning "Qaytish" hamda Najib Mahfuzning "O'zgaralar uchun yasha" asarlari misolida yoritiladi. Asarlarda qahramonlarning ichki kechinmalari, insoniy tanlov, muhabbat, ishonch va gumon kabi umuminsoniy muammolar modernistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida modernizm adabiyotida ochiq yakunning o'quvchini fikrlashga undovchi muhim badiiy usul ekanligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: modernizm, ochiq yakun, ramziylik, psixologizm, adabiy oqim, badiiy tahlil, inson ruhiyati, muhabbat, ishonch va gumon, badiiy obraz.

ПРОБЛЕМА НЕЗАВЕРШЕННЫХ КОНЦОВОК В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Олимова Рушана Илгоржон кизи

студентка 1 курса направления «Узбекский язык и литература»

*факультета языков Самаркандского государственного педагогического
института*

Научный руководитель: Буриева Фируза Нормуратовна

и.о. доцента кафедры узбекского языка и литературы,

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Аннотация. В данной статье анализируются специфические особенности модернистского движения в литературе. В частности, в произведениях Абдулхамида Чолпона «Ночь и день», Хуриида Достмухаммада «Джаджман», Андре Моруа «Возвращение» и Наджиба Махфуза «Жить ради других» освещаются такие аспекты, как открытый финал, символизм и психологизм. В произведениях анализируются универсальные человеческие проблемы, такие как внутренний мир персонажей, человеческий выбор, любовь, доверие и подозрительность, с точки зрения модернизма. Результаты исследования показывают, что в модернистской литературе открытый финал является важным художественным приемом, побуждающим читателя к размышлению.

Ключевые слова: модернизм, открытый финал, символизм, психологизм, литературное движение, художественный анализ, человеческая психика, любовь, доверие и подозрительность, художественный образ.

THE ISSUE OF OPEN-ENDED CONCLUSION IN FICTION

Olimova Rushana Ilg'orjon qizi

1st-year student in Uzbek Language and Literature

Faculty of Languages, Samarkand State Pedagogical Institute

*Scientific advisor: **Buriyeva Firuza Normurotovna***

Acting Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Abstract. This article analyzes the specific features of the modernist movement in literature. In particular, such aspects as open ending, symbolism, and psychologism are highlighted in the works of Abdulhamid Cholpon's "Night and Day", Khurshid Dostmuhammad's "Jajman", Andre Maurois' "Return", and Najib Mahfouz's "Live for Others". The works analyze universal human problems such as the inner experiences of

the characters, human choice, love, trust, and suspicion based on a modernist approach. The research results show that in modernist literature, open ending is an important artistic method that encourages the reader to think.

Keywords: *modernism, open ending, symbolism, psychologism, literary movement, artistic analysis, human psyche, love, trust, and suspicion, artistic image.*

Adabiyot — inson ruhiyati, hayot haqiqatlari va jamiyat muammolarini ifoda etuvchi badiiy san'at turidir. Inson ruhiyati adabiyot orqali turli davrlarda har xil adabiy oqimlar orqali ifoda etilgan. Adabiyot tarixida ma'lum davrda shakllangan badiiy-estetik yo'nalishlar adabiy oqim deb ataladi. Asosiy adabiy oqimlarga romantizm (hissiyot va ideal olam tasviri ustun), realizm (hayotni hech qanday bo'yoqlarsiz va haqqoniy tasvirlash), naturalizm (tabiat va muhit tasviri), modernizm (an'anaviylikdan chekinish, ya'ni ramziylik va psixologizmning kuchliligi), postmodernizm (erkin uslub) hamda sentimentalizm (tuyg'ularning ko'proq tasvirlanishi) kiradi.

Modernizm adabiyotida an'anaviylikdan chekinish kuzatiladi. Ya'ni voqealar to'liq yakunlanmasligi, ramziy obrazlarning ishlatilishi hamda psixologik ta'sirning kuchli bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. "Modernizm — falsafa, san'at va adabiyot sohasidagi noklassik qarashlar tizimini umumlashtiruvchi atama" [2,43]. Asarlarda yakunning bo'lmasligi o'quvchi psixologiyasiga boshqacha ta'sir qiladi, ya'ni kitobxonni fikrlashga, mulohaza yuritishga chorlaydi. Asarlarda yakunning ochiq qolishi modernizm uslubiga xosdir. "M.

Xolbekov modernizm o'zbek adabiyotiga o'tgan asrning 80-yillaridagina kirib kelgan degan fikrni ilgari suradi" [1,201]. Ammo undan avval ham o'zbek adabiyotida modernistik unsurlar uchragan. Masalan, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy asarlarida bunday jihatlar mavjud bo'lgan. Faqat o'sha davrda modernizm tushunchasi hali keng tarqalmagan edi.

Masalan, Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari yakuni kitobxon ixtiyoriga havola etilgan. Ya'ni Zebining taqdiri ochiq qilgicha qolgan. Asar yakunining ochiq qolishi aynan modernizm oqimiga xos xususiyatlardan biridir. Hozirgi kunda modernistik uslubda ijod qilayotgan yozuvchilar ham talaygina. Xususan, Xurshid

Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul va Salomat Vafo hikoyalarini misol sifatida keltirish mumkin.

Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasi kitobxonni chuqur o'ylashga chorlaydi va uning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. "Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog'liq tarzda kechadi. Dunyoqarash deganda konkret insonning dunyo haqidagi bilimlari, tushunchalari va g'oyalari majmui tushuniladi" [2,43]. "Jajman" hikoyasining asosiy qahramoni Jajmandir. U reallikda mavjud emas, ya'ni ramziy maxluq sifatida tasvirlangan. Bu qahramon asarda uchraydigan ko'plab savdogarlarning kasodga uchrashiga sabab bo'ladi, uning harakatlari tufayli savdogarlarning mollari uvol bo'ladi. Eng qizig'i shundaki, bu maxluqotni hech kim tuta olmaydi.

Bu ramziy qahramonni inson nafs va ichki kurashi sifatida talqin qilish mumkin. Negaki, inson zotiga qancha ko'p berilsa, u shuncha ko'p narsani xohlaydi. Demak, Jajman ham butunlay yo'qolmaydi, ham to'liq g'alaba qozonmaydi. Shuningdek, asarda Zardusht, Axuramazda va Axriman kabi obrazlar ham uchraydi. Bular ham bejiz kiritilmagan. Ya'ni yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash hech qachon tugamasligi ifodalanadi.

Ochiq yakun masalasida xulosa o'quvchining o'ziga havola etiladi, ammo syujetlar turlicha bo'ladi. Fransuz yozuvchisi Andre Moruaning "Qaytish" hikoyasi bunga misol bo'la oladi. Bu asar o'tkir psixologik hikoya bo'lib, insonning shubha va gumonlari baxtsizlikka olib kelishiga ishora qiladi. Hikoyaning asosiy qahramoni Reno Leymari juda rashkchi inson bo'lib, oxir-oqibat rafiqasi Elenning sadoqatiga ishonmay, uni tashlab ketadi. Elen esa sadoqatli va sabrli ayol sifatida tasvirlanadi. Reno Elenni sevadi, ammo unga ishonmaydi. Ochiq yakunning paydo bo'lishiga aynan qahramonning shu fe'li sabab bo'ladi.

Elenning xatti-harakatlari orqali ayollarga xos nafosat va joziba aks etadi. Birgina dasturxon tuzash jarayonida ham Elenning qanchalik e'tiborli ekanini ko'rish mumkin. Modernizmning yana bir elementi — ramziylikdir. Asarda ranglar orqali ham ramziy ma'nolar ochib beriladi. Psixologiyada ranglarning his-tuyg'ular bilan aloqadorligi

o'rganilgan. Masalan, oq rang poklikni, qizil rang kuchli emotsiyani, pushti rang esa iliqlikni ifodalaydi.

Demak, Elenning butun muhabbati uning harakatlarida namoyon bo'ladi. Ammo bu muhabbat javobsiz qoladi.

Asardagi asosiy konflikt insonning ichki holati bilan bog'liq. Ya'ni Renoning shubha va ishonch o'rtasidagi kurashi asosiy o'rinni egallaydi. U turmush o'rtog'iga ishonish o'rniga gumonga boradi. Holbuki, Elen ikki kishilik stolni tayyorlab bo'lgach, Reno sevgan shokoladni olib kelish uchun bir muddatga chiqib ketgan bo'ladi. Reno esa bu stol o'zi uchun emas degan gumonga borib, noma'lum tomonga yo'l oladi. Shu tariqa hikoya yakuni ochiq qoladi: Elen kutadimi yoki yo'qmi, Reno qaytib keladimi — bu savollar javobsiz qoladi.

Misr yozuvchisi Najib Mahfuz esa "O'zgalar uchun yasha" hikoyasida o'z sevgisidan ongli ravishda voz kechgan inson taqdirini tasvirlaydi. Ushbu hikoyani modernistik yondashuvda tahlil qiladigan bo'lsak, unda insonning ichki kechinmalari va shaxsiy tanlovi kabi masalalar etakchi o'rinni egallaydi. Asar qahramoni Abdurahmon qo'shnisi Samarani sevib qoladi. Ammo ukasi Anvar aynan shu qizga uylanish niyatini Abdurahmonga aytadi. Shu o'rinda qahramon oldida ikki tanlov paydo bo'ladi: o'z muhabbatiga erishish yoki oilasi uchun undan voz kechish.

Afsuski, Abdurahmon o'z baxtini qurbon qiladi va ukasi uchun Samaraning qo'lini so'rashga rozi bo'ladi.

Shu o'rinda "Abdurahmon endi baxtsiz bo'ladimi?", "U muhabbatini qanday unutadi?" kabi savollar tug'iladi va ochiqligicha qoladi. Hikoyadagi ismlar ham ma'lum ramziy ma'noga ega. Masalan, Samara — arabcha "samar" so'zidan olingan bo'lib, "meva" degan ma'noni anglatadi. Bu esa hayot mevasi, ya'ni baxt ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Anvar ismi esa "yorug'lik" ma'nosini bildiradi. Bu uning hayotida baxt va kelajak borligini anglatadi. Abdurahmon esa o'sha yorug'lik uchun o'z sevgisidan voz kechadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot shunchaki voqealar bayoni emas, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy bo'yoqlar orqali aks ettiruvchi yuksak san'atdir. Modernizm oqimi esa bu san'atga mutlaqo yangicha ruh olib kirdi. Tahlil

qilingan Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz", Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman", Andre Moruaning "Qaytish" hamda Najib Mahfuzning "O'zgaralar uchun yasha" asarlari orqali modernistik uslubning o'ziga xos qirralarini ko'rish mumkin.

Modernistik asarlarda ochiq yakun muhim ahamiyat kasb etadi. Voqealar echimi kitobxonga havola qilinadi va bu o'quvchini faol mushohada yuritishga undaydi. Ramziylik va psixologizm esa qahramonlarning ichki kechinmalarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Turli millat yozuvchilarining asarlarida ishonch va gumon, muhabbat va qurbonlik, nafs va ma'naviyat kabi umuminsoniy muammolar turlicha talqin qilinadi.

Shunday qilib, modernizm adabiyoti insonni o'zini anglashga, hayot haqiqatlariga ramzlar va psixologik tahlillar orqali qarashga o'rgatadi. Zebining noaniq taqdiri, Renoning asossiz gumoni yoki Abdurahmonning o'z sevgisidan voz kechishi kabi holatlar kitobxonni hayotda to'g'ri tanlov qilishga va insoniy tuyg'ularni qadrlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusattorova Mushtariy. O'zbek adabiyotida modernizm shakllanishi va paydo bo'lishi.
2. Quronov, Dilmurod. 2.Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020, 311 bet.
3. Ziyo.uz (<https://ziyo.uz/>)